

Aholi va hududlarning seysmik xavfsizligini ta'minlashda Yaponiya tajribasi

Joriy yil 30-may kuni Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi Farmoni qabul qilingan edi. Hozirgi kunda jahon amaliyotidagi qurilishlarda bino va inshootlarning seysmik xavfsizligini ta'minlash masalalari yetakchi o'rinni egallaydi. Bu borada dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ma'lum yutuqlarga erishilgan bo'lib, bino va inshootlarni loyihalashda mustahkamlik va zilzilabardoshlikni ta'minlash uchun konstruktiv yechimlar va antiseysmik chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda hisoblash usullarini takomillashtirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston faol seysmik hududlar qatoriga kiradi. Shuning uchun ham binolar va inshootlarning qurilishi hamda ularning zilzilabardoshligi masalalari hamisha dolzarbdir. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Seysmologiya institutida "Aholi va hududlarning seysmik xavfsizligini ta'minlashda Yaponiya tajribasi" mavzusida davra suhbatini bo'lib o'tdi.



Davra suhbatida Informatsion-texnologiyalar, telekommunikatsiyalar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari departamenti Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini muvofiqlashtirish sho'basi, Favqulodda vaziyatlar, Qurilish, Innovatsion rivojlanish vazirliklari, Fanlar akademiyasi, Farg'ona politexnika instituti, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Turin politexnika universitetining Toshkent shahridagi filiali, Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti, Fuqaro muhofazasi instituti, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligining (JICA) O'zbekistondagi vakolatxonasi, Toshkent davlat texnika universiteti (TDTU) huzuridagi O'zbekiston-Yaponiya yoshlar innovatsiya markazi, "El-yurt umidi" jamg'armasi hamda Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti xodimlari ishtirok etdilar.

Davra suhbatida mamlakatimizda seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida tegishli sohalaridagi bugungi kunning dolzarb muammolari, bu borada olib borilayotgan o'zaro hamkorlik istiqbollari hamda chet el tajribasini amaliyotga joriy etish yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirdilar.